

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI  
QO'LLASHDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali  
“Pedagogika psixologiya va filologiya” kafedrası  
o'qituvchisi **Jakbarova Oyazimxon Mutalipovna**,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich  
talabasi **Abdug'aniyeva Masturaxon Toxirjon qizi***

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Mazkur ishda raqamli vositalar yordamida e'tibor, xotira va ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlarni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Ushbu ishda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va ehtimoliy kamchiliklari yoritiladi.

**Анотация:** В данной статье рассматривается роль цифровых технологий в развитии когнитивных навыков учащихся начальных классов. В работе анализируются методы формирования таких способностей, как внимание, память и творческое мышление с помощью цифровых инструментов. Также освещаются преимущества и возможные недостатки использования современных технологий в образовательном процессе.

**Abstract:** This article examines the role of digital technologies in developing cognitive skills in primary education students. The study analyzes methods for shaping abilities such as attention, memory, and creative thinking using digital tools. It also highlights the advantages and potential drawbacks of using modern technologies in the educational process.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, kognitiv ko'nikmalar, intellektual rivojlanish, raqamli o'quv dasturlar, vizual materiallar, innovatsion metodlar, ta'lim samaradorligi, interfaol platformalar, adaptiv o'qitish.

**Key words:** Digital technologies, cognitive skills, intellectual development, digital learning programs, visual materials, innovative methods, educational efficiency, interactive platforms, adaptive learning.

**Ключевые слова:** Цифровые технологии, когнитивные навыки, интеллектуальное развитие, цифровые учебные программы, визуальные материалы, инновационные методы, эффективность образования, интерактивные платформы, адаптивное обучение.

Bugungi kun zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar davriga moslashishni talab qilmoqda. Boshlang'ich ta'limda raqamli

texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtiradi balki, ularning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, e'tibor, xotira, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, bu texnologiyalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri va ularni amaliy qo'llash usullari samarali bo'lishi kutilmoqda. Ushbu mavzuda bugungi kunda pedagogik faoliyatni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda dolzarb masala hisoblanadi.

**Raqamli texnologiyalar va boshlang'ich ta'lim:** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va ularning faol ishtirokini ta'minlashda ta'lim platformalari va oyinlar muhim ro'l o'ynaydi. Kognitiv ko'nikmalar- bu xotira, e'tibor, mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli o'quv vositalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira va e'tiborini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, o'yinlashgan ta'lim texnologiyalari bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: Ta'lim o'yinlari, virtual darslar, platformalar, o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Axborotlarni qayta ishlash va xotirani rivojlantirish raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar axborotlarni tezda qayta ishlash, tanlash va xotirada saqlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilar vazifalarini mustaqil bajaradi. Interaktiv mashqlar ularning mantiqiy fikrlash faoliyatini kuchaytiradi. Raqamli vositalar, vizual materiallar yordamida bilimlarni yanada chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

**Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ro'li. Interaktiv dasturlar.** Ta'lim dasturlari o'quvchilarga bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Masalan: matematikada hisoblashni o'rgatadigan dasturlar bolalarning diqqatini jamlash va xotirasini rivojlantirishga yordam beradi.

**Onlayn o'yinlar** . O'quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni hal qilish va tez qaror qabul qilish imkoniyatlartini yaratadi.

**Ko'rgazmali vositalar** :Animatsiyalar va interaktiv grafikalar yordamida o'quvchilarga murakkab mavzularni tushunishga yordam beradi.

**Raqamli texnologiyalarning afzalliklari va ehtimoliy kamchililari.**

Texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarini ko'rish orqali yodda saqlashni osonlashtiradi. Har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos ravishda materiallarni tanlash imkoniyati. Masalan: O'quv dasturlari o'quvchilar bilim

darajasini tahlil qilgan holda shaxsiy tavsiyalarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini vaqt va joyga bog'liq bo'lmagan tarzda olib borishga imkon beradi. Ehtimoliy kamchiligi. Bolalarning haddan tashqari ekran qarshisida vaqt o'tkazishi salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shu sababli raqamli texnologiyalardan foydalanishda balans saqlash zarur.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim vositalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tibor va xotirasini rivojlantirishning ijobiy natijalarini ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'yinlashgan platformalar va virtual darslar yordamida bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati mavjud. Kelajakda raqamli vositalar orqali ta'lim jarayonining innovatsion metodlarini kengaytirish ustida ish olib borish zarur. Bu esa yosh avlodning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berdikulova, N . Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalar. SamDu. 2023.
2. Djurayeva, S.I. Boshlang'ich ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarning o'rni. Research gate. 2024.
3. Xolmurodov, B Ta'limda raqamli va innovatsion texnologiyalarning o'rni va istiqbollari. UMFT, 2024.
4. Saidova, M pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar. BIMM. 2024
5. Karimov, O. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi. Toshkent TDPU. nashriyoti . 2021.